

**ALLIUM SATIVUM O'SIMLIGINING KIMYOVIY TARKIBI VA XALQ
TABOBATIDAGI AXAMIYATI****ХИМИЧЕСКИЙ СОСТАВ И ЗНАЧЕНИЕ В НАРОДНОЙ МЕДИЦИНЕ
ALLIUM SATIVUM****CHEMICAL COMPOSITION AND SIGNIFICANCE IN FOLK MEDICINE
OF ALLIUM SATIVUM****Do'saliyeva Safura Shavkatjon qizi***Farg'ona davlat universiteti kimyo kafedrası o'qituvchisi***Nuraliyeva Mashrabxon Qudratbek qizi****Ne'matova Mahliyoxon Baxromjon qizi***Farg'ona davlat universiteti talabalari*

Annotatsiya. Maqolada *Allium sativum* o'simligining biologik xususiyatlari, tarkibiy tuzilmasi, xalq tabobatidagi shifobaxsh tomonlari, kimyoviy tarkibi va uning yo'talga, gijjaga qarshi xususiyatlari yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Allergiya, fitonsidlar, efir moylari, antioksidant, sariq kasalligi, epilepsiya, testosteron.

Аннотация. В статье освещены биологические свойства растения *Allium sativum*, его составная структура, целебные свойства в народной медицине, химический состав, а также его свойства против кашля и глистов.

Ключевые слова: аллергия, фитонциды, эфирные масла, антиоксидант, желтуха, эпилепсия, тестостерон.

Abstract. The article highlights the biological properties of the plant *Allium sativum*, its structural composition, medicinal benefits in folk medicine, chemical composition, and its effects against cough and worms.

Keywords: allergy, phytoncides, essential oils, antioxidant, jaundice, epilepsy, testosterone.

Allium turkumi o'simliklari iste'mol qilinadigan va dorivor ahamiyatga ega sabzavotlardan bo'lib, ko'pincha oziq-ovqat va ziravor sifatida ishlatiladi. *Allium sativum* piyozdoshlar oilasiga mansub ikki va ko'p yillik o'tsimon o'simlik bo'lib, sabzavot ekini sifatida yetishtiriladi. Vatani O'rta Osiyo bo'lib, yovvoyi holda Hindiston, O'rta dengiz atroflari, Qozog'iston, Sibir, Kavkaz va O'rta Osiyoda uchraydi. Hozirda jahondagi deyarli barcha mamlakatlarda yetishtiriladi. Madaniy shakli ikki turga bo'linadi: biri gulpoya chiqarmaydi, ikkinchisi gullab, urug' hosil

qiladi. O'zbekistonda tarqalgan gulpoya chiqaruvchi navlari serhosil va qishga chidamli hisoblanadi[1]. Bargi lentasimon, ildizi patak, gullari mayda, ikki jinsli, qo'ng'iroqsimon, oq yoki binafsharang rangda. Piyozni murakkab bo'lib, pardasimon umumiy qobiq ichida 7-30 dona mayda piyozchalardan iborat.

Allium sativum tarkibida qand, C va B guruh vitaminlari, efir moyi, fitonsidlar, kaliy, kaltsiy, fosfor, selen, manganets, yod va boshqa mikroelementlar mavjud. Ushbu biologik faol moddalar shamollashni davolash, qon bosimini tushirish, yurak-qon tomir tizimini mustahkamlash, antioksidant ta'sir ko'rsatish va organizmning uzoq vaqt yoshlik holatini saqlashda muhim ahamiyatga ega. Fitonsidlar sarimsoqni bakteriya va parazitlardan himoya qilib, bakteritsid, antiparazitar va zamburug'larga qarshi ta'sir ko'rsatadi. Tadqiqotlar muntazam ravishda sarimsoq iste'mol qiladigan shaxslar guruhida shamollash bilan kasallanish darajasi sarimsoqni iste'mol qilmaydiganlarga nisbatan uch baravar kamligini ko'rsatgan[2].

Allium sativum yurak-qon tomir tizimi faoliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, qon hosil bo'lishini rag'batlantiradi, qon bosimi va xolesterin darajasini pasaytiradi, tromboz xavfi va qonning yopishqoqligini kamaytiradi. Shu bilan birga, kislorodni qabul qilish qobiliyati, chidamlilik va a'zolarga qon kelishi tezligi yaxshilanadi, bu erkaklar jinsiy funktsiyalariga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Sarimsoq testosteron ishlab chiqarilishini rag'batlantiradi va immunitetni mustahkamlaydi.

Sarimsoqning sitoplazmasida alliin birikmasi mavjud bo'lib, tishchani kesganda hujayralar ferment bilan reaksiyaga kiradi va allitsin hosil bo'ladi. Allitsin antioksidant sifatida ishlaydi, saraton hujayralarini yo'q qiladi va nafas olish tizimidagi infeksiyon jarayonlarni kamaytiradi[3]. Farmatsevtika sohasi sarimsoq asosida tayyorlangan kapsula, kukun va tindirmalarni shamollash, yallig'lanish, yurak-qon tomir kasalliklari va saratonni davolashda qo'llaydi. Tindirma tashqi tomondan teri yallig'lanishiga qarshi ham ishlatiladi.

Allium sativum gijjaga qarshi ham samarali bo'lib, sut bilan aralashtirib ichilganda organizmni parazitlardan tozalashga yordam beradi. Shuningdek, sarimsoqni toza qovurib, dumba yog'i bilan aralashtirib ko'krak qafasi va tovonlarga surish shamollash, bronxit va zotiljamni davolashda qo'llaniladi. Uzoq umr ko'rish va organizmni toksinlardan tozalash uchun sarimsoqni yangi yoki limon-asal bilan iste'mol qilish tavsiya etiladi. Kunlik optimal miqdor 1-2 tishcha bo'lib, xom holda ko'p miqdorda iste'mol qilish oshqozon noxushliklariga olib kelishi mumkin.

Allium sativum tarkibidagi biologik faol moddalar va fitonsidlar uning xalq tabobatidagi ahamiyatini oshiradi. U shamollash, gripp, bronxit, gijja va boshqa infeksiyon kasalliklarni oldini olishda, yurak-qon tomir tizimini mustahkamlashda, testosteron ishlab chiqarishni rag'batlantirish va immunitetni oshirishda muhim

dorivor vosita hisoblanadi[4]. Shu bilan birga, allergiya, oshqozon-ichak yarasi, sariq kasalligi, epilepsiya va ba'zi boshqa kasalliklarda faqat shifokor tavsiyasi bilan iste'mol qilinishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Hojimatov Q., Olloyorov M. , O'zbekistonning shifobaxsh o'simliklari va ularni muhofaza qilish, T., 1988;
2. G.S.Tursunboyeva, G.M.Duschanova, A.T.Abdullayeva, J.S.Sadinov Botanika o'simliklar morfologiyasi va anatomiyasi . Darslik. Toshkent 2019.
3. Xolmatov X.X., Axmedov U.A.Farmakognoziya. Toshkent, Abu Ali Ibn Sino nashriyoti. Toshkent.,1995.
4. Q. Haydarov, Q. Hojimatov, "O'zbekiston o'simliklari," Toshkent, "O'qituvchi", 2002.